

ZARDO‘ZLIK SAN’ATI HAQIDA MALU‘MOT.

**TIKUV BUYUMLARINING ZARDO‘ZLIK USULI BILAN
BEZASH**

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Texnologik ta’lim yo‘nalishi TXT BU 24

Muallif: **Yusufjonova Mohinur**

Ilmiy rahbar: **Tursunova Shahzoda**

Аннотация

Mazkur maqolada zardo‘zlik sanati va uning tikuv buyumlarini bezashdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Zardo‘zlik — o‘ziga xos milliy hunarmandchilik turi bo‘lib, matoga oltin va kumush iplardan, shuningdek, marvarid, tosh va boshqa bezak elementlari yordamida naqsh tushirish san’atidir. Ushbu uslub liboslar, pardalar, sumkalar va boshqa mato buyumlarini nafis va boy ko‘rinishga keltiradi. Maqolada zardo‘zlikning tarixi, asosiy usullari va zamonaviy tikuvchilik sohasidagi ahamiyati haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Zardo‘zlik , tikib buyumlarini zardo‘zlik usuli bilan bezash ,asosiy bezash usullari , naqsh , zardo‘zlikda ishlatiladigan asbob uskunalar

Zardo‘zlik — bezak san’ati turi; amaliy san’atning zar (tilla va kumush suvi yuritilgan) ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan sohasi. **Zardo‘zlik** — qiziqarli va ijodiy ish bo‘lib, u insonga ko‘p quvonch keltirishi, bo‘sh vaqtida ermak bo‘lishi, insonni nafosat olamiga olib kirishi mumkin. Zar tikish usullarini o‘zlashtirayotganda hamma narsa birdaniga yaxshi chiqmasligi

mumkin, chunki zardo'zlik **sabr-toqatli, e'tiborli, tartibli** bo'lishni talab etadi. Chidamli bo'lish lozim. Kerakli malakalar egallagan sayin ish asta-sekin osonlasha boradi. Qadimda ham, hozir ham zardo'zlik bilan shug'ullanadigan hunarmandlarni «**zardo'z**» deb atashadi. O'zbekiston kashtachiligini noyob turi zardo'zlik san'atisiz to'la tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu [hunarmandchilik turi](#) o'tgan asrning o'rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. U yerda mohir ustalar amir saroyining ustaxonalarida amir va uning saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardoz berishgan. Zardo'zlik odatda erkaklarga mansub bo'lgan va ular o'z hunarini bolalariga meros qilib qoldirishgan. Zar iplardan foydalanishdan ilgari ular belgilangan chegarada uzun qilib olinadi va patilaga 4 qavat qilib, ya'ni zar o'raydigan cho'pga o'raladi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri **patilaga** o'ralmasdan, avval oddiy ip patilaga mahkam qilib bog'lanadi, so'ng shu ipga zar iplar ulanadi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga ulansa, tezda uzilib ketishi mumkin. Zar iplarni o'rayotganda ularning tekis o'ralashiga e'tibor berish zarur. Keyin zar ip bilan maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi.

[To'rtburchak](#) chambarakka (korcho'pga) o'rnatilgan baxmal, shoyi, movut, charm va boshqa matolarga zardo'zi usulida kashta (gul, naqsh, tasvir) tikiladi. Kashtada ba'zan metall, tosh, shisha munchoklar ham ishlatiladi, turli matolar (baxmal, shoyi va b.)dan quroq qilinadi. Oldindan tayyorlangan (rassomlar tomonidan yaratilgan mujassamot nusxasi kuchirilgan) axta qog'ozlardan keng foydalaniladi. Matoga mustahkamlangan (tikilgan yoki yopishtirilgan) axta qog'oz zar ip bilan bir tomonlama qoplab tikiladi (mustahkamlovchi chok uchun zar ipga moye rangdagi ipdan foydalaniladi), natijada naqshgul yuzasi zar iplar bilan qoplanadi, matoning teskarisida naqshgul shakligina hosil bo'ladi. Zardo'zlar bezak yaratishda bir necha usulni qo'llaydilar: zardo'zi zamindo'zi va zardo'zi guldo'zi, shuningdek, birishimdo'zi (ipak ishlatilganda), pulakdo'zi (tugmasimon metall yaproqchalar qo'llanganda) va b. Mustahkamlovchi va tahrir choklarning bir

necha xilini mohirona qo'llanishi hamda ularning naqsh mujassamoti bilan uyg'unlashuvi zardo'zi buyumlarga joziba va nafosat baxsh etadi; ularning badiiy qimmati naqsh mujassamoti, xom ashyosi, tikilishi hamda zardo'z ustaning did va mahoratiga bog'liq. Naqsh mujassamotida keng tarqalgan an'ana 3. badiiy hunarmandlik turi sifatida Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan. A Arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar [O'rta Osiyo](#) xalqlari orasida zardo'zi kiyim va badiiy buyumlar tikish qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Ispan elchisi Klavixo uz esdaliklarida 3. usulida tikilgan ko'rpato'shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida, erkak va ayollarning zar ipda tikilgan kiyimlari haqida zavq bilan yozadi. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining "[Hindiston](#) safarnomasi" risolasida Shohrux (1442) Hindistonning Kalkutta viloyati hukmdori huzuriga yuborgan elchilari orqali unga zardo'zi do'ppi sovg'a qilgani qayd etilgan. Vosifiy o'zining risolalarida 3. kasbi to'g'risida so'z yuritgan. Darqaqiqat, 15—18-asrlarda Buxoro, Samarqand, Hirotida 3. yuksak pog'onaga ko'tarilgan. Uning 19-asrdagi taraqqiyoti Buxoro bilan bog'liq. Buxoroda saqlanib kelayotgan 3. kasbi uzoq davr mobaynida sayqal topib, takomillasha borgan. 3. bilan, asosan, erkaklar shug'ullangan (hozir ayollar orasida ham keng tarqalgan), ular ustaxonalarga uyushib ishlashgan. 19-asr o'rtalari 20-asr boshlarida yaratilgan zardo'zi buyumlar (to'n, kamzul, chakmon, chalvor, poyabzal, belbog', salla, kuloh va jul kabi)ning deyarli barchasi amir va uning oilasi, saroy a'yonlari uchun tayyorlangan, qisman badavlat xonadonlar buyurtmalari ham bajarilgan. 19-asr 30—60y.larida Z.da aks ettirilgan mujassamotlar qanchalik oddiy bo'lsa, kashta — gullar ham shunchalik ravon va jozibador bo'lgan. 19-asr 70—80y.larida zar ip yoki zar aralashtirib eshilgan ipak ip (pushti, to'q qizil, moviy, yashil)dan foydalanilgan. Z.ning zardo'zi birishimdo'zi nomli o'ziga xos turi shu davrga xosdir. 1893-yildan zar iplarning yangi navlari ko'p miqdorda ishlab chiqarilib, ular rangli ipak iplarni siqib chiqardi va umumiy tikish uslubini ham tubdan o'zgartirib yubordi.sosan,

binolar ichini bezaydigan buyumlar, ayollarning bayram liboslari 3. bilan tayyorlangan

1890— 1900y.lardagi 3. zargarona o‘ta nozikligi bilan ajralib turadi. Turli ko‘rinishdagi bo‘rtma girixlar, yulduzchalar va shunga o‘xshagan boshqa bezaklar buyumga o‘zgacha zeb berib turgan, ayniqsa, davqur mujassamoti alohida o‘rin tutgan. 20-asr 20y.larida barcha amaliy buyumlarning turlari o‘zgardi, avvalgi hashamdor buyumlar o‘rnini nafis ishlangan, davr talabiga mos buyumlar egalladi, naqsh mujassamoti soddalashtirildi, an’anaviy naqshlar davr ruhini ifoda etuvchi shakllar bilan boyitildi. Zardo‘zlar ayollarning bayram liboslari (ko‘ylak, nimcha, do‘ppi, kamar, kavush, sumkacha), an’anaviy buyumlar, erkaklar uchun sovg‘a to‘nlar, do‘ppilar tayyorlay boshladilar. 40—50y.lar boshida mahobatli zardo‘zi namoyonlar yaratish sezilarli darajada rivojlandi. Dastlabki yirik ish Navoiy teatri uchun tikilgan zardo‘zi parda bo‘ldi (1947, A. Shchusev chizgisi, hajmi 7x27 m). Rassomlarning amaliy san’at ustalari bilan hamkorligi hamda ijodiy izlanishlar natijasida yangi mujassamotli mayda buyumlar, badiiy jihatdan qimmatli namoyonlar yaratildi va yaratilmoqda: "Kitoba" (1952, N. Aminov chizgisi), "Paxta" (1955, M. Prutskaya chizgisi), "Bayram" (1959, V. Stolyarov va M. Ahmedova chizgisi), "[Girih](#)" (1962, V. Stolyarov chizgisi), Alisher Navoiyning 525 yilligiga (1968) va b.ga bagishlangan namoyonlar Z.ning katta yutug‘i bo‘ldi. 90y.larga kelib 3. qayta tiklandi. Buxoro, Andijon, Namangan, Fargona, Toshkent, Samarqand, Urgut, Qarshi, Jizzax sh.lari, [Surxondaryo viloyati](#) zamonaviy 3. san’atining markazlari hisoblanib, zardo‘z ustalar (N. Aminov, B. Jumayev, S. Akbarova, T. Sodikrva, G. Bozorova, G. Pirimqulova, M. Habibova, G. Nurtoyeva, M. Muhiddinova, D. Tosheva va b.) chopon, do‘ppi, nimcha kabi liboslar katorida mavzuli namoyonlar, teatr pardalari hamda sovg‘a buyumlar, ignadonlar, ko‘zoynak g‘ilofi, upaelik sumkachalarini 3. usullarida bezatishni rivojlantirdilar

B. Jumayev rafiqasi M. Jumayeva bilan birgalikda Buxoro zardo‘zlik san’ati maktabini tiklash va rivojlantirish maqsadida markaz tashkil qildi (1995). B. Jumayevning "Bahouddin Naqshbandiy" (1997), "Buxoroyi Sharif" (1997), "Qo’shtovus" (1998), "Gultuvak" (1998), "[Alisher Navoiy](#)" (1998) mavzularidagi devoriy namoyenlarining yuqori darajadagi texnik ijrosi hamda muallifning o‘ziga xos uslubi va badiiy an’analarning uyg‘unlashganligi bilan ajralib turadi. Ustalar va rassomlar yaratayotgan yirik mavzuli zardo‘zi buyumlar respublika va chet mamlakatlar ko‘rgazmalarida namoyish etilmoqda, muzeylarida saqlanmoqda

Asosiy / Xalq san'ati / Zardo‘zlik – zar tikish san’ati

Zardo‘zlik san’atining ildizlari olis o‘tmishga borib taqaladi. Bu san’at Bobil Janubiy Mesopotamiyaning muhim iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lgan davrda paydo bo‘lgani taxmin qilinadi. Shuningdek, u Vizantiyada ham rivojlangan. Vizantiya bilan ochiq va muntazam madaniy almashinuv tufayli, kashtachilik san’ati O‘rta Osiyo hududiga ham yoyilgan. Zarrin iplarda naqsh solingan hashamdor buyumlarning dovrug‘i Qadimgi Rusga ham yetib borgan. Zardo‘zlik san’atining ildizlari olis o‘tmishga borib taqaladi. Bu san’at Bobil Janubiy Mesopotamiyaning muhim iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lgan davrda paydo bo‘lgani taxmin qilinadi. Shuningdek, u Vizantiyada ham rivojlangan. Vizantiya bilan ochiq va muntazam madaniy almashinuv tufayli, kashtachilik san’ati O‘rta Osiyo hududiga ham yoyilgan. Zarrin iplarda naqsh solingan hashamdor buyumlarning dovrug‘i Qadimgi Rusga ham yetib borgan. Erkaklar uchun choponlar, sallalar, do‘ppilar, ishtonlar oltin iplar bilan bezatilardi. Ayollar uchun esa ko‘ylaklar, choponlar, ro‘mollar, bosh kiyimlar va bog‘ichlar, turli xil poyabzallar zardo‘zlik bilan yasatilardi. Hashamat va boylikning alohida belgisi otlarning zardo‘zi yopinchiqlari bo‘lib, ular nafaqat zarbof kashta, balki qimmatbaho toshlar va javohirlar bilan ham qoplangan edi.

Faqat ayollar shug‘ullanadigan ipak kashtachiligidan farqli o‘laroq, zardo‘zlik bilan faqat erkaklar shug‘ullanardi. Eng mashhur zardo‘z ustalardan biri No‘mon Aminov edi. U 1908-yilda Buxoroda tug‘ilib, butun umri davomida Buxoro amirligi ustaxonasida ishlagan.

Zardo‘zlik san’ati katta tajriba va mahorat talab etadi. Buning uchun maxsus asboblari va texnologiyalar qo‘llaniladi. Naqsh kompozitsiyasini yaratish uchun avval andoza orqali naqsh tayyorlanadi, so‘ngra u qirqilib, tarang tortilgan matoga mahkamlanadi va ustidan qimmatbaho iplar bilan qoplanadi. Har bir buyumda maxsus kashta usullari qo‘llaniladi, bunday usullarning o‘ttizdan ortiq turi ma’lum. Bular orasida “zamindo‘zi” - yaxlit tikish, “guldo‘zi” - oq fonda o‘yilgan naqsh asosida kashta tikish kabilar bor. Hozirgi kunda zardo‘zlik bilan nafaqat erkaklar, balki ayollar ham shug‘ullanadi va bu san’at turi Buxorodan tashqarida ham keng tarqalgan. Bugungi kunda ajoyib zardo‘zlik buyumlari -so‘zanalar, esdalik sovg‘alari, kiyim-kechaklarning qismlari, sumkalar, hashamdor yopinchiqlar va boshqa ko‘plab narsalar erkin sotuvda mavjud.

tikuv buyumlarini zardo'zlik bilan bezash

Tikuv buyumlarini zardo'zlik bilan bezash — bu kiyim va boshqa to'qimachilik mahsulotlariga oltin yoki kumush iplar, marvarid va qimmatbaho toshlar yordamida naqsh berish san'atidir

. 2026-yilga kelib, bu an'anaviy hunarmandchilik turi nafaqat milliy liboslarda, balki zamonaviy moda olamida ham keng qo'llanilmoqda.

Asosiy bezash usullari va texnikalari

Zardo'zlikda tikuv buyumlarini bezashning bir necha asosiy uslublari mavjud:

Buyumning butun sirti zar iplar bilan to'liq qoplanadi.

Naqshlar matoning ma'lum bir qismiga, oldindan chizilgan gul yoki geometrik shakllar asosida tikiladi.

Bezashda *zarip, likkak, tagalak, pulakcha* kabi maxsus choklardan foydalaniladi.

Ishlatiladigan materiallar

Bezash jarayonida quyidagi xomashyolardan foydalaniladi:

Baxmal, ipak, movut, shuningdek, zamonaviy dizaynda charm va fetr matolari ham qo'llaniladi. Oltin va kumush suvi yuritilgan maxsus zar iplar hamda rangli ipak iplar.

Marvaridlar, qimmatbaho toshlar, munchoqlar va turli shakldagi metall parchalar.

Zamonaviy qo'llanilishi (2026-yil tendensiyalari)

2026-yilda zardo'zlik san'ati faqat to'y liboslari (to'n, chopon, kelin ko'ylaklari) bilan cheklanib qolmay, quyidagi buyumlarda ham uchraydi:: Sumkalar, poyabzallar, kamar va hamyonlar. ostiq jildlari, parda va devoriy pannolar.

Pidjak va nimchalarning yoqa hamda yeng qismlarini zardo'zlik naqshlari bilan bezash ommalashgan

Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ushbu qimmatbaho kiyimlarnio'ziga buyurtirishga haqqi yo'q edi. Ular bu kiyimlarni amir sovg'a qilgandagina

kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo'z kiyimlarini esa faqatginabadavlat xonadon a'zolari kiyishga haqli edilar. Zar va kumush ip bilan erkaklarto'ni, salla, do'ppi, shalvar, poyabzallar, ayollarning ko'ylak, kamzul kaltacha, peshanaband, ro'mol, etik va tuflilari tikilgan. Mustaqillikka

erishgan kunimizdan boshlab davlatimizning butun siyosati o'zligimizni qayta tiklash va mustahkamlashga qaratildi. Ayniqsa, mamlakatimiz ertasi bo'lgan yoshlarimizdabunday muqaddas his-tuyg'uni shakllantirishda ona tilimiz, ana'analarimiz va urf-odatlarimiz bilan birga milliy xunarmandchiligimiz ham muhim o'rintutadi. 1997-yil 31 martda O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining «Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilanqo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga asosan Respublika «Hunarmand» uyushmasi tashkil etildi va uningviloyatlarda hududiy bo'linmalari ochildi. Bu uyushma va uning hududiy bo'linmalarini tashkil etishdan maqsad, uzoq yillar mobaynida unutilib ketganxalq amaliy san'ti va xunarmandchiligini tiklash, o'zbek milliy amaliy san'ati vaxunarmandchiligini butun dunyoga tanitish edi. Zardo'zlik — qiziqarli va ijodiy ish bo'lib, u insonga ko'p quvonch keltirishi, bo'sh vaqtida ermak bo'lishi, insonni nafasat olamiga olib kirishi mumkin. Zar tikish usullarinio'zlashtirayotganda hamma narsa birdaniga yaxshi chiqmasligi mumkin, chunki zardo'zlik sabr-toqatli, e'tiborli, tartibli bo'lishni talab etadi. Chidamli bo'lishlozim. Kerakli malakalar egallagan sayin ish asta-sekin osonlasha boradi. Mohirzardo'z bo'lishni xohlagan har bir hunarmand quyidagi uch hunarni bilishi zarur bo'lgan: Uy-ro'zg'orda ishlatiladigan zardo'zi buyumlar inson atrofidagi narsalaruchun mo'ljallangan bo'lib, insonga estetik zavq bag'ishlash va uning ijtimoiymavqeini ko'rsatishga xizmat qilgan. Uy-ro'zg'orda ishlatiladigan zardo'zibuyumlarning quyidagi turlari mavjud: choy xaltai zardo'zi, muxr xaltai zardo'zi, pul xaltai zardo'zi, jildi soat, g'ilofi zardo'zi, tumorchai zardo'zi, so'zanai zardo'zi, chimildiki zardo'zi, joynomozi zardo'zi, choynakpo'shaki zardo'zi va hokazo. Uy-ro'zg'orda ishlatiladigan zardo'zi buyumlarni bichish usullari hamda bichimining tuzilishiga qarab uch turga ajratish mumkin. Zardo'zlikda ishlatiladiganmateriallar (gazlamalar turlari, zar ipar). Zardo'zlik buyumlarining xususiytexnologiyasi, o'sha buyum uchun

material tanlash va uni bichishdan boshlanadi. Zardo'zlik mahsulotlarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning sirtida zardo'zi naqshlarning bo'rtib turishidir. Shuning uchun, naqshlar tagiga tukli materialishlatiladi. Zardo'zlikda asosiy gazlamalardan duxoba, velyur gazlamalari ishlatiladi.

Duxoba — tukli o'rishlarda to'qilgan gazlama bo'lib, uning asosi paxtaipidan, faqat tuklarigina tabiiy ipakdan bo'ladi. Duxoba, asosan, uy - ro'zg'or buyumlarida ishlatilgan. Velyur — sidirg'a, zich to'kilgan, tukligazlama. Tuklari tik, jun ipdan to'qilgan. Hozirgi kunda zardo'zlikda sintetik tola aralashtirib to'qilgan, zardo'zlar «taqir velyur» deb atashadigan turi ko'p ishlatiladi. Undanbarcha turdagi zardo'zlik buyumlari tikiladi. Bu velyur turi chidamliligi, pishiqligi, qattiqligi, ko'rkamligi va boshqa xossalari bilan zardo'zlikka juda mostushadi. Zardo'zlikda ishlatiladigan yordamchi gazlamlarga quyidagilar kiradi: Bo'z (xom surp) — pardoatlanmagan ip — gazlama, ancha qalin va og'ir material. Bo'z karda ipdan polotno o'rishlarda to'qilgan, shuning uchun pishik va cho'zilmaydi. Surp — oqartirilgan va pardoatlangan bo'z. XX asrgacha bo'lgan zardo'zlikda surp chakmon, poyabzallarda naqshlar ostiga tagzamin sifatida ishlatilgan. Hozir ham kumush rangli ip bilan tikiladigan naqshlar ostiga qo'yiladi. Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib hisoblangan. Oq va tillarang tusdagi yassilangan kumush tolasi sim deb atalib, u Buxoro zardo'zlari tomonidan keng qo'llanilgan. Dumaloq metall ip (likkak) — pishiq yigirilgan ingichka dumaloq metall ipdan iborat bo'lib, u prujinaga o'xshab likillab turadi. Zar iplardan tashqari zardo'zlikda jaydari rangdor ipakiplardan ham foydalanib, ular asosan gullarga qo'shimcha oro berishda hamda matoga zar yo'l tushirishda ishlatiladi. Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar. Zar ipni o'rash. Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar unchalik ko'p bo'lmasa-da, ular o'ziga xos tuzilishga ega. Zardo'zlikda ishlatiladigan asosiy asbob korcho'b bo'lib, u ikki qismdan iborat: chambarak va xorak. «Korcho'b» forscha so'z bo'lib, «kor» — ish, «cho'b» - taxta, yog'och ma'nolarni anglatadi. Chambarak uzunligi 320 sm

gacha bo'lgan ikkita teng yonli yog'ochdasta va ularning maxsus qismida harakatlanuvchi silliq taxta, ya'nishamshirakdan iborat Shamshirakdagi ovalsimon o'yiqlar yog'och dastalarga mato tortilganda ularnitarang ushlab turishga xizmat qiladi.Korcho'kning ikkinchi qismi xoraklardir. Xoraklar yog'och poylar bo'lib,ishlagan vaqtda chambarak ular ustiga qo'yilgan, chunki qadimda zardo'zlar ko'rpacha ustida o'tirib, ish tikishgan.Hozirgi zamonaviy sexlarda metallardan (temir va uning qotishmalaridan) tayyorlangan zardo'zlik dastgohlari ishlatiladi. Bu sexdagi zardo'zlik dastgohlarni ikki turga bo'lish mumkin:1.

Kichik o'lchamli uy — ro'zg'or buyumlari va zardo'zlik kiyim — kechaklarni tikish uchun mo'ljallangan dastgohlar;2.Katta o'lchamdagi buyumlarni, masalan, zardo'zi gilam, so'zana va hokazolarni tikishga mo'ljallangan dastgohlar.

Ular tuzilishi bilan emas, balki chambarak qismining o'lchamlari bilangina farq qiladi, xolos.Zardo'zlikda korcho'pdan so'ng turadigan asbobdan biri — patila hisoblanadi. Patila — to'rt qirrali va nafis qilib tarashlangan, ichi kavlanib, qo'rg'oshin quyib vazminlashtirilgan, uzunligi 18 — 20 sm li oddiy yog'och tayoqcha.

Patila zar iplarni zich va bir tekis qilib o'rashda ishlatilgan, bu tikilayotgan zardo'zning bir tekis chiqishiga yordam bergan, zar ipning chalishib isrof bo'lishiga yo'l qo'ymagan.Zardo'zlikda angishvona ham zarur. Chunki zardo'zlik naqshlari faqat qo'lda tikiladi. Angishvona igna qo'lga kirib ketmasligi uchun ishlatiladigan metall g'ilofdir. Uning ustki va yon tomonlarida igna toyib ketmasligi uchun chuqurchalar o'yilgan.Zardo'zlikda barcha jarayonlar qo'lda bajariladigan choklar orqali amalga oshiriladi, shuning uchun ignalar va ularni tanlay bilish muhim ahamiyatga ega.Zardo'zlikda asosan ikki xil turdagi ignalar ishlatiladi:1.Tikish ishlari uchun 2 sonli ignalar ishlatiladi.2.

Bezatish ishlari uchun esa 1 sonli ignalar ishlatiladi. Zardo'zlikda uch turdagi qaychilardan foydalaniladi: Naqshlar, gullarni qirqishda ishlatiladigan qaychi o'rdakburun va tuyabo'yin qaychi. Bu qaychilar faqat gullarni qirqishda kerak bo'ladi. Pardozlashda kerak bo'ladigan qaychilar. Bu qaychilar kichikroq bo'lib, dastgoh ustida ishlashda qulay. Andoza bichishda kerak bo'ladigan qaychilar. Bunday qaychilar kattaroq va o'tkirroq bo'lishi zarur. Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob - uskunalar o'tkir uchli asboblardan bo'lib, ular bilan ishlaganda ehtiyot bo'lish va texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish zarur. Avvalo, ularni saqlash uchun alohida moslama bo'lishi darkor. Ignalar bilan ishlayotganda, albatta ularni igna qadagichlarga qadab qo'yiladi. Ulardan foydalanganda angishvona kiyib olinadi. Ignaga ip o'tkazganda hech qachon ularni lab orasida ushlab turmaslik lozim. Nafas olayotganda yoki gapirmoqchi bo'lganda ular bexosdan ichga ketib qolishi mumkin. Qaychilar ham uchi o'tkir asboblardan biri bo'lib, ulardan noto'g'i foydalanish o'zigagina emas, bilki atrofdagilarga xam Zarar keltirishi, ish sifatining buzilishiga, ishning to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Zar iplardan foydalanishdan ilgari ular belgilangan chegarada uzun qilib olinadi va patilaga 4 qavat qilib, ya'ni zar o'raydigan cho'pga o'raladi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga o'ralmasdan, avval oddiy ip patilaga mahkam qilib bog'lanadi, so'ng shu ipga zar iplar ulanadi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga ulansa, tezda uzilib ketishi mumkin. Zar iplarni o'rayotganda ularning tekis o'ralashiga e'tibor berish zarur. Keyin zar ip bilan maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Toshkent: Ma'naviyat, 2008. . Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch
2. Ahmedov M. O'zbek xalq amaliy san'ati. – Toshkent: Fan, 2015.

3. Bulatov S.S. Kashtachilik san’ati va uning turlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
4. Xolmatova Z. O‘zbek milliy hunarmandchiligi asoslari. – Samarqand: Zarafshon, 2019.
- To‘xtayeva N.A. Amaliy san’at va dizayn asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
5. Rasulova M. O‘zbek xalq kashtachiligi tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. Abdullayeva D. Milliy hunarmandchilik va madaniy meros. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.

Internet manbalari

1. <https://www.lex.uz>
2. <https://www.ziyouz.com>
3. <https://www.culture.uz>
4. <https://www.edu.uz>
5. <https://www.unesco.org>